



**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA ODDIY TUYATOVON
O‘SIMLIKINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

A.Musaeva, 2-kurs magistranti, S.To‘reniyazova a.x.i.f.d. (PHD)

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Musaevaaysuliw9@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oddiy tuyatovon o‘simligining bioekologiyasi va uni Qoraqalpog‘iston sharoitida yetishtirish texnologiyasi haqidagi asosiy ma‘lumotlar keltirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *Oddiy tuyatovon, quruq va sho‘rxok tuproqlar, azotli o‘g‘itlar, agronomik xususiyatlari, ilmiy va amaliy metodlar, suv, adaptatsiya.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о биоэкологии сада парнолистик обыкновенной и основных аспектах технологии ее выращивания.*

Ключевые слова: *парнолистик обыкновенный, сухая и засоленная почва, азотное удобрение, агрономические свойства, научные и практические методы, вода, адаптация.*

Annotation: *This article provides information about the bioecology of the honeysuckle garden and the main aspects of the technology for its cultivation.*

Keywords: *Common wheatgrass, dry and salty soil, nitrogen fertilizer, agronomic properties, scientific and practical methods, water, adaptation.*

Oddiy tuyatovon - *Zygophyllum fabago* ko‘p yillik o‘simlik. U Tuyatovondoshlar - *Zygophyllaceae* oilasiga mansub bo‘lib, qurg‘oqchilikka chidamliligi bilan mashhur. O‘simlik shoxli bo‘lib o‘sadi va mayda sariq gullar hosil qiladi. Odatda sovuq oylarda tinch davrga o‘tadi. Tuyatovon o‘simligi Qoraqalpog‘istonning har xil tuproq sharoitida o‘sib rivojlanadigan o‘simliklarning biri hisoblanadi. Bu o‘simlik ko‘p yillik ildizpoyali o‘simlik o‘t, buta, chala butalardan iborat. O‘simlikda tekis, odatda tik yoki biroz ko‘tarilgan poyasi bor. Poyasi qattiq, shoxlangan. Bo‘yi 30-70 sm. Barglari sersuv, qarama-qarshi, ba‘zan 2



- 4 juftdan joylashgan. Barglari bandli, keng, yashil, teskari tuxumsimon bargchalari bor. Yonbag'irlari yashil, tuxumsimon yoki ellipssimon, pastki va o'rta barglari qo'shilib ketgan. [1,6];

Gullari 1 yoki 2 tadan, gulkosa barglari tuxumsimon yoki ellipssimon, chetlari oqish pardali. Gultoj barglari deyarli gul barglariga teng, teskari tuxumsimon, oqish sariq, tubi qizil dog'li. Changchilari 8-10 ta, changchilari tojbarglaridan ko'p. Yozda gullab urug'lanadi. Urug'idan ko'payadi. Mevasi bir yoki bir necha uchli ko'sak. Ildizlari o'q ildiz bo'lib, yer sharining cho'l va yarim cho'l hududlarida tarqalgan. 250 dan ortiq turi bor. O'zbekistonda 13 turi uchraydi. Yovvoyi o't sifatida barcha ekinlar orasida uchraydi. Daryo, ko'l atroflarida, vohalardagi biroz sho'rlangan yerlarda o'sadi. [4,6]

Dunyoda tuyatovonning tarqalishini quyidagicha tavsiflash mumkin: o'rtacha bu tur o'zining tabiiy arealining butun hududida keng tarqalgan bo'lsa-da, odatda quruq va yarim quruq hududlarda uchraydi, asosan O'rta Osiyo, Kavkazorti, Janubiy Sibirning quruq hududlarida yaxshi drenajlangan tuproqlarda o'sadi va atrof-muhitning og'ir sharoitlarida omon qolishga moslashgan [5].

Tuyatovon o'simligini yetishtirish texnologiyasi.

Quyida tuyatovon o'simligini issiqxona va dala sharoitida yetishtirish texnologiyasini ko'rib chiqamiz. Zygophyllum o'simliklari issiq va quruq iqlimga chidamli, shuning uchun O'zbekistonning ko'plab mintaqalarida, xususan, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlaridagi cho'l hududlarida bu o'simlikni yetishtirish mumkin. Bu o'simliklar suvni tejashga moslashgan, shuning uchun ularni sug'orish minimal darajada talab qilinadi, lekin o'simlik o'sishining dastlabki bosqichlarida sezilarli miqdorda suv zarur. [2]

Tuyatovon o'simligi urug'lari orqali ko'payadi. Urug'lar yaxshi sifatli bo'lishi kerak, chunki ularning yuqori navlari yaxshiroq rivojlanadi. Urug'lar kuzda yoki bahorda ekiladi. Bahorda mart oylarining boshlarida, tuproq harorati 10-15 C ga yetganda ekish tavsiya etiladi. Neytral yoki biroz ishqoriy (pH 7,0-7,5) tuproqlar mos keladi. Urug'larni ekishda 1-2 sm chuqurlikda va o'simlik oralig'i 15-20 sm bo'lishi kerak. Ekishdan oldin tuproqni tayyorlash, organik o'g'itlar bilan boyitish,

shuningdek, tuproqning yaxshi drenajlanishini ta'minlash zarur. O'sish uchun 20-25°C harorat ideal hisoblanadi. O'simlik -5 C gacha sovuqqa chidamli. Unib chiqish vaqti mart oyida, vegetativ o'sish bosqichi aprel-may oylari, gullash va meva berish iyun-iyul oylari, avgustdan boshlab vegetatsiya davrini yakunlaydi. Tuyatovon o'simligi qurg'oqchilikka chidamli bo'lsa-da, boshlang'ich o'sish davrida yaxshi rivojlanishi uchun ortiqcha sug'orish kerak bo'lishi mumkin. Sug'orish davri quruq iqlimda minimal darajada bo'lishi kerak, harorat va yog'in miqdorini hisobga olib sug'orish tizimi belgilanadi. Tuyatovon o'simligi asosan kam o'g'it talab qiladi, lekin o'g'it berish o'simliklarning sifatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Organik o'g'itlar (kompost yoki gumus) tuproqni boyitishda samarali bo'ladi. Bir necha mikroelementlar va fosfor, kaliy, azot kabi mineral o'g'itlar o'simliklarning o'sishi uchun foydali bo'lishi mumkin. [3].




1-rasm: Tuyatovon o'simligining ajratilgan urug'lari



2-rasm: Tuyatovon o'simligining dala sharoitida yetishtirilishi

Tuyatovon - *Zygophyllum fabago* o'simligini dala sharoitida madaniy yetishtirishning fenologik spektri;




Tuyatovon o‘simligining issiqxona sharoitida yetishtirilganda olingan natijalarga asoslangan jadval:

Jadval – 1

	sana	Unib chiqqanlar%	Uzunligi sm
ekilgan	31.01.2025		
Unib chiqa boshladi	10.02.2025	30%	1-1,5
	17.02.2025	50%	2,8-3,2
	20.02.2025	70 %	3,5-3,8
	26.02.2025		5-5,9
	01.03.2025		6,8-7,1
	10.03.2025		7,5-8,1
	17.03.2025	80 %	8,5-9

Ushbu jadvalda ko‘rinib turganidek o‘simlikning 100 dona urug‘i 31.01.2025 sanasida idishlarga ekildi. Shundan 10.02.2025 sanasida o‘simlikning 30% i 1-1,5 sm uzunlikda ko‘karib chiqa boshladi. Keyin 17.03.2025 sanasida ekilgan urug‘lar 80% miqdorda 8,5-9 sm uzunlikda o‘sdi.



3-rasm: Tuyatovon o'simligini issiqxonada yetishtirish

Metod va materiallar. Tuyatovon o'simliklarini o'rganish va ularni samarali yetishtirishda turli ilmiy va amaliy metodlardan foydalaniladi. Ular orasida organik tadqiqot usullari ham alohida o'rin tutadi, chunki bu o'simliklar quruq va sho'r tuproqlarda yaxshi o'sadi va ekologik jihatdan barqaror ekin sifatida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Morfologik tahlil: Tuyatovon o'simligining morfologik xususiyatlari yordamida turli sharoitlarda ularning qanday rivojlanishini tahlil qilish mumkin.

Fiziologik tahlil: O'simliklarning qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli fiziologik mexanizmlari o'rganiladi. Bu, ayniqsa, o'simlikning suvni qanday tejashini, osmolatlar va boshqa adaptiv elementlar ishlab chiqarishini aniqlashda muhimdir.

Agronomik tahlil: Tuyatovon o'simligini ekish va yetishtirishda organik o'g'itlar va tabiiy pestitsidlar (masalan, kompost, biologik preparatlar) qo'llaniladi. Bu usullar tuproqni tabiiy holatda saqlash, o'simliklarning yaxshi o'sishini ta'minlash va ekinlar sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, tuyatovon o'simligini o'rganish bir qancha zarur natijalarni berdi, ayniqsa, ularning sho'rga va qurg'oqchilikka chidamliligi, genetik moslashuvchanligi, morfologik va fiziologik moslanishlari, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari bo'yicha. Bu o'simlikning yetishtirish texnologiyasini o'rganganimizda urug'dan erta bahorda ekilganda, hosildorlik



yaxshi bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bu o'simlik ekologik tiklanishda va tuproqni sho'rlanishdan saqlashda samarali ekinlar sifatida katta salohiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyev S., "Tuzli tuproqlarda Zygothymus fabago ningrivojlanish mexanizmlari," Ekologiya va agrotexnologiya kitobi, 2020.
2. Dzhayev A., "Zygothymus fabagoning agronomic xususiyatlari," O'simliklarni yetishtirish jurnali, 2018.
3. Д. Өстемірқызы va boshqalar "Растение Парнолистник обыкновенный (Zygothymus fabago L.) – как источник биологически активных веществ
4. Torenizyazova L. E., Torenizyazova S. E. Determination of species of entomophages in reducing the number of pests in agro-biocenosis of Karakalpakstan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 82. – С. 06005.
5. <https://www.plantarium.ru/page/view/item/41237.html>
6. <https://aprj.journals.ekb.eg/>